

SAID AHMAD ASARLARIDA MILLIY RUH IFODASI

Qambarova Muxlisa

ToshDO'TAU talabasi, 406-guruh

Muxlisaqambarova13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Said Ahmad ijodida xalqimizga xos bo'lgan milliy ruh ifodalanishi va obrazlar jonliligi haqida so'z boradi. Adib asarlaridagi syujet hayotiyliigi va qahramonlar oddiy xalq vakillari ekanligi tahlil qilinib, bunga boshqa adabiyotshunoslar fikri bilan ham dalil keltiriladi. Yozuvchi bosh qahramon sifatida o'quvchiga tanishtirgan ota, qaynona va kelin obrazlarida ochib berilgan o'zbeklarga xos fazilatlar qanchalar muhim ahamiyatga ega ekanligi, dunyo adabiyotiga o'zbek xalqi ruhiyati bilan namoyon bo'lish va yoshlarni shu ruhda tarbiyalashdagi o'rni beqiyosligi g'oyasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: milliy ruh, o'zbek xalqi, adabiyot, obraz, o'zbek oilasi, adabiyotshunoslik, jamiyat, yumor.

Kirish

Milliy ruh – bu xalqning tarixiy xotirasi ma'naviy qadriyatlari, mentalitet va ichki dunyosining badiiy ifodasidir. Har bir xalq adabiyoti o'z milliy ruhini saqlab, uni yangi davrlar talablari bilan uyg'unlashtirish orqali rivoj topadi. Albatta milliy ruhni saqlagan holda asrlar yaratish, ularni kelajak avlodga bu-butun holida yetkazish yozuvchi va shoirlar zimmasidagi ulkan yukdir. O'zbek adabiyotida bu vazifani yuksak mahorat bilan uddalagan, xalqchil va bir o'qishda tugatiladigan asarlar muallifi Said Ahmad alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi o'z asarlarida oddiy xalq hayoti manzaralarini o'zbek xalqiga xos yumor, achinish, sabr, mehr-oqibat va oriyatni yuksak badiiylik bilan tasvirlagan. Asar syujeti real hayotdagi voqealar bilan hamnafas holda tuzilganligi, qahramonlar oddiy xalq vakillari ekanligi bilan o'quvchini o'zbek xalqining hayot tarzi, soda va mehnatkash odamlari bilan tanishtiribgina qolmay, shu xalqni bir qismiga aylanib ular bilan yashashga imkon beradi.

Said Ahmad ijodi o'zbek nasriyning yigirmanchi asr ikkinchi yarmi rivojida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi asarlarida xalq hayotining o'ziga xosligini qadriyatlarni asrashga jon dili bilan harakat qiladigan o'zbek oilalarini, mehnatdan qochmaydigan xalq ruhiyatini tasvirlash orqali milliy o'zlikni ifodalagan. Shu bois Said Ahmad ijodini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik balki o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola yozuvchining asarlarida milliy ruhning qanday

ifodalaganini tahlil qilish, qahramonlar obrazi va harakterini o‘rganish bilan birga zamonaviy o‘zbek adabiyoti uchun ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Said Ahmadning hayoti va ijod yo‘li

Said Ahmad Xusanxo‘jayev 1920-yil 10-iyunda Toshkentda tug‘ilgan. Yozuvchining ilk hikoyalari o‘zbek xalqining urushdan keying hayoti qishloq mehnatkashlarining orzulari va qiyinchiliklarini ifoda etadi. Adibning ilk hikoyalar to‘plami „Tortiq“ 1940-yil nashr qilingan. Yozuvchi hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G‘afur G‘ulomning yumori va Abdulla Qahhor bayonidagi lakonizmi (fikirni qisqa, ammo aniq va mazmunli shaklda ifodalash usuli) mujjasmalashganligini ko‘plab adabiyotshunoslar takidlab o‘tishgan. Yozuvchi uslubining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu zamon bilan hamnafasligidir. Bu usulni boshqa adiblarda ayniqsa yigirma birinchi asr shoir va yozuvchilarida uchratish mushkuldir. Balki shuning uchun ham yozuvchining asarlari tez tarqalib, sevimli asarlarga aylangan va juda ko‘plab chet tillariga tarjima qilingan. Sevimli adibimiz faqatgina hikoya yoki romanlar yozish bilan cheklanib qolmaydi, Said Ahmadning fel‘etonlari, o‘zbek radio va televideniya qonun qonun miniaturalarga asos slogan hajviy asarlari, „Kelinlar qo‘zg‘aloni“ „Kuyov“ kabi sahna asarlari ham xalq orasida juda mashxur. Yozuvchi ijodini va hayotini tildga olar ekanmiz albatta u insonga hayot va ijod yo‘llarida ko‘makdosh bolgan ardoqli shoirimiz Said Zunnunovning tutgan o‘rni va ahamiyatini eslamay o‘tish joiz bo‘lmaydi. Said Ahmadning umr yo‘ldoshi Said Zunnova hayot yo‘llaridagi quvonchu mashaqqatlarida sherik bo‘lib o‘tganini takidlab adib shunday yozadi „Saidaxonni ish stolida o‘tirib biron narsa yozganini eslay olmayman. Oshxonada qozon kavlab turib bir qo‘lida she‘r yozardi. Bolasining belanchagini tebratib o‘tirib tizzasiga daftar qo‘yib yozgan paytlari ko‘p bo‘lgan.“¹¹⁷

Yozuvchining asarlarida milliy ruhning badiiy ifodasi.

Said Ahmad ijodida milliy ruh avvalo xalqona til va uslub orqali namoyon bo‘ladi. Uning asarlaridagi dialoglar va monologlar tabiiy xalq og‘zaki ijodi unsurlariga boyligi bilab ajralib turadi. Masalan, „Kelinlar qo‘zg‘aloni“ komediyasida oddiy o‘zbek oilasi hayoti, oiladagi ayollar o‘rni, jamiyatdagi o‘zgarishlar hazil va kinoya orqali ifoda etilgan. Asarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan kelinlik fazilatlar, qaynonaning oiladagi roli va harakteristikasi real hayotdan olinganligi sababli ham hali hanuz yurtimiz teatr va tele ekranlarida tomoshabinlarga tabassum ulashib kelmoqda. Ko‘pchilikka ayonki u qanday asar bo‘lmasin uzoq vaqtlar xalq ardog‘ida bo‘lishi va o‘quvchiga kulgi ulasha olishi uchun o‘sha xalq asarda o‘z hayotini ko‘ra olishi va qahramonlar tomoshabin tanigan, kerak bo‘lsa har kuni hayotda uchratadigan insonlar bo‘lmog‘i lozim. Ushbu asardagi Farmonbibi –

¹¹⁷ Said Ahmad. (2000). Yo‘qotganlarim va topganlarim. (b.181-182). Toshkent: „Sharq“ nashriyot-matbaa konseimi bosh taxririya.

qaynona obrazi ham shunday obrazlardan biri, nafaqat qaynona balki butun oila vakillari har kungi hayotimizda uchratishimiz mumkin bo‘lgan insonlar shuning uchun ular xalqimiz orasida sevimli obrazga aylangan. Adib bu asarida xalq ruhini nafaqat til orqali balki ijtimoiy munosabatlar, oila qadri va an‘analar orqali ochib beradi.

Yozuvchining „Ufq“ trilogiyasi esa o‘zbek xalqining yigirmanchi asrdagi tarixiy yo‘lini aks ettiradi. Unda urush, mehnat, fidoyilik, oilaviy qadriyatlar bilan birga xalqning orzu-umidlari, sabr-toqati va ma‘naviy barqarorligi tasvirlangan. Ozod Sharafiddinov adib asarlari va ulardagi qahramonlar haqida gapirar ekan „Uning asarlaridagi odamlar tipik fazilatlarining majmuasidan tarkib topgan „ijobiy qahramonlar“ emas, mehnat qiluvchi izlanuvchi, muvaffaqiyatlaridan suyunib boshi osmonga yetuvchi, ko‘pincha taqdir zarbalari ostida iztirob chekuvchi, lekin umidsizlikni yengib o‘tishga qodir, samimiy, halol odamlardir.“¹¹⁸ deydi. asar bosh qahramoni Ikromjonni kuzatar ekansizko‘z o‘ngingizda ozbek otasiga hos obraz jonlanadi. Tilab olgan farzandiga mehribon lekin, mehri to‘lib toshgan so‘zlarida emas, harakatlarida farzandi uchun qayg‘urishiyu, mehrini ko‘zlariga yashirishida namoyon bo‘ladi. Aynan shu obrazning o‘zida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan oriyat hissi ham juda tasirchan uslubda ochib berilgan. O‘glining urushdan qochgani haqida gap tarqalganidan so‘ng or-nomusga chidolmay yangi o‘zlashtirilayotgan cho‘lga ayoli Jannat xola bilan ko‘chib ketib, o‘sha yerlarda yer chopib mehnat qilib hayotlarini davom ettirishadi.

Adib obraz yaratishda ko‘p hollarda xalq maqollari hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanadi. Bu uslub o‘quvchiga o‘zini tanish muhitda his qilishga imkon beradi. Shuningdek, asarlardagi voqealar o‘zbek oilasi, mahalla hayoti va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalq ruhini yanada yorqin aks ettiradi. Yozuvchi ijodida ayollar obrazi ham alohida etiborga loyiq. „Kelinlar qo‘zg‘aloni“dagi kelinlar va qaynona „Ufq“ va „Qorako‘z majnun“dagi ayollar hayotga faol, mustaqil qarashlari bilan ajralib turadi. Ularda o‘zbek ayolining mashaqqatli davrda ham oriyatini saqlagan, irodali qiyofasini yaratadi. Adib ayollarni nafaqat uy bekasiva ona balki jamiyatning faol a‘zosi sifatida o‘rin tutgan jabhalarni mahorat bilan qalamga oladi.

Xulosa:

Said Ahmadning mahorati shundaki, u milliy ruhni sun‘iy, bo‘yoqdor uslubda emas, tabiiy hayotiy voqealar, insoniy tuyg‘ular orqali yoritadi. Yozuvchi uchun milliy ruh – bu faqat o‘zbeklik belgisi emas, balki insonning ichki pokligi, qadriyatlarga sodiqligi va ma‘naviy pokligidir. Shuning uchun uning asarlari bugungi o‘quvchi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Adibning milliy ruhni ifodalashdagi yondashuvi ayniqsa post-

¹¹⁸ Ijod – iztirob farzandi(2023). Samarqand.b. 16.

sovet davr o'zgarishlari bilan uyg'unlashadi. Mustaqillikdan keying o'zbek adabiyoti uchun Said Ahmad merosi milliy o'zlikni qayta anglash va uni saqlab qolishning badiiy namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Yozuvchi milliylikni til, obraz, voqea va g'oyalar darajasida yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Uning asarlarida mehnatsevar o'zbek xalqi, oriyatli o'zbek ayoli, yuksak qadriyatga ega o'zbek oilasi, jamiyatdagi insoniy munosabatlar o'zbek millatining haqiqiy qiyofasini aks ettiradi. Adib ijodi milliy adabiyotimiz poydevorining bir qismi sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bugungi kumda adib asarlarini o'rganish ayniqsa juda zarur hisoblanadi. Yozuvchining asarlarini yoshlar orasida keng targ'ib qilish ularni qiziqishini orttirish orqali hozirgi globallashuv davrida boshqa millatlarga taqlid qilishga urinayotgan yoshlarga naqadar boy milliyligimiz borligini o'rgatish va o'zbek millati axloqi, qadriyatlarini yanada chuqurroq anglashlariga ko'mak berish imkonini beradi. Bu asarlarni dunyo tillariga tarjima qilish, tahlil qilish esa o'zbek adabiyoti xalqaro maydonda ham boy qadriyatlari va ruhiyatini namoyon etish va tanitishda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan Said Ahmad ijodiy merosi nafaqat adabiy balki ma'naviy boyligimiz sifatida qadirlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asadov, M.T. 2021. "Fransuz-o'zbek tarjimachiligi istiqbollari". O'zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 125-134.
2. Саид Ахмад (2000), танланган асарлар. - „шарк" нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти. Тошкент.
3. „Ijod - iztirob farzandi". - Samarqand: A.S Pushkin nomidagi axborot-kutibxona markazi nashriyoti, 2023.- 26 b.
4. Mamarasulova, Gulnoz Abdulqosimovna. "INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHARQQA YAQINLASHUV HODISASI." O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari(2024): 955-958.
5. Milliycha.uz – Said Ahmad – Milliylik millat ko'zgusi.
<https://milliycha.uz/said-ahmad-1920-2007/>